

MORFEM LUG‘ATLARDA TOVUSH O‘ZGARISHLARINING MODELLASHTIRILISHI MASALALARI

Berdiyeva Habiba Abdumannon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

habibahoshimovaa@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. B.Mengliyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada morfemik lug‘atlarda tovush o‘zgarishlarini lingvistik modellashtirish haqida va bunga bugungi kundagi zarurat, qanday manbalar lingvistik modellashtirish uchun ilmiy manba bo‘la oladi va shu kabi bir qator savollarga javob beriladi. Morfemik lug‘atlarda tovush o‘zgarishlarini lingvistik modellashtirish tilshunoslik sohasidagi ushbu yo‘nalishning osonlashuviga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *tovush o‘zgarishi, lingvistik model, modellashtirish, morfem lug‘at, qo‘shimcha.*

Abstract. In this article, about the linguistic modeling of sound changes in morphemic dictionaries and the need for it today, what sources can be scientific sources for linguistic modeling, and a number of similar questions will be answered. Linguistic modeling of sound changes in morphemic dictionaries helps facilitate this direction in linguistics.

Keywords: *sound change, linguistic model, modeling, morpheme dictionary, suffix.*


Аннотация. В данной статье о лингвистическом моделировании звуковых изменений в морфемных словарях и необходимости его сегодня, какие источники могут быть научными источниками для лингвистического моделирования и на ряд подобных вопросов будут даны ответы. Лингвистическое моделирование звуковых изменений в морфемных словарях помогает развитию этого направления в области языкознания.

Ключевые слова: *изменение звука, языковая модель, моделирование, словарь морфем, сложение.*

Model (lotincha «modelus» so‘zidan olingan bo‘lib, «nusxa», «andaza», «o‘lchov», «me‘yor» ma‘nolarini anglatadi) tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi sifatida tushuniladiki, u muayyan original-obyekt haqidagi ma‘lum otlar majmuyi tarzida yuzaga kelgan hosila-obyekt demakdir. Boshqacha tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o‘xshashi, taqlidiy ko‘rinishi), u o‘zbek tilidagi qolip, andaza so‘zlariga mos keladi [6].

Modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod hisoblanadi.

Lingvistik tadqiqot modellari. Bunda muayyan til hodisalari asosida olib borilgan tadqiqot jarayonini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida morfologik usul asosida so'z yasallishining umumiy modeli:



Modellashtirish tilshunoslikda strukturalizm yoʻnalishi taʼsirida faol tatbiq qilina boshlandi.

Lingvistik modellashtirish - bu belgilarni bajarayotgan vazifasiga koʻra beqaror va barqaror kabi turlarga ajratish hisoblanib, tilshunoslikka E.Sepir, L.Blumfild, R.Yakobson, N.Chomskiy, Harris, Hokket kabi olimlarning ilmiy izlanishlari orqali kirib kelgan [1;73]. 20-asrning 60-70-yillarida oʻzining taraqqiyotiga erishgan. Lingvistik modellashtirish tadqiq qilnayotgan belgining soddalashishiga, uning oʻz hosilasi mavjud ekanligiga, model belgisining oson qayd qilinishiga yordam beradi. Lingvistik yoʻnalishda aynan tovush oʻzgarishlarining modellashtirilishini nazarda tutadigan boʻlsak, ular inson nutqiy faoliyatiga daxldor modellashtirish hisoblanadi va bu modellar nutq oʻzgarishlarining aniq faktlariga tayangan holda yuzaga keltiriladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bogʻliqdir. Demak, ijodiy va mustaqil taffakkurli shaxs tarbiyasida ona tili va uning taʼlimini tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos.

Maʼlumki, oʻrta maktab ona tili taʼlimining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi taʼkidlanadi: darslik va lugʻatlar. Oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini oʻstirishning zaruriy omillaridan biri lugʻatlar ustida ishlashdir. Lugʻatlar oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini ogʻzaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy soʻz zahirasi vujudga keltiradi.

Morfemik lugʻatda modellashtirish muammolari bir necha omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ushbu omillardan baʼzilari:


1. Aniq ma'nolilik: Morfemik lug'at tarkibidagi so'zlar ba'zan ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, ya'ni ular bir necha talqinga ega bo'ladi. Ushbu noaniqlik kontekstdagi so'zlarning ma'nosini modellashtirish va bashorat qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

2. Kontekstga bog'liqlik: Morfemik lug'at tarkibidagi so'zlarning ma'nosi ko'p jihatdan ular qo'llanilgan kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Model so'zning ma'nosini aniq bashorat qilish uchun kontekstni tushunishi kerak.

3. Neyron tarmoq cheklovlari: Tabiiy tilni qayta ishlash uchun keng qo'llaniladigan neyron tarmoqlar morfemik lug'atlarning murakkabligi va o'zgaruvchanligini boshqarishga qodir bo'lmasligi mumkin.

4. Ko'p ma'nolilik: morfemik lug'atlarda bir nechta ma'noli so'zlar bo'lishi, bu esa chalkashliklarni keltirib chiqarishi va modellashtirish jarayonini yanada murakkablashtirishi mumkin.

Ma'noli qismlarga ajralmaydigan, so'zning nomustaqil tarkibiy qismiga morfema deyiladi. Morfemalar funksional-semantik jihatdan ikki guruhga bo'linadi:



So'zning morfem tarkibini ajratish. Har bir so'zning morfemalarga ajratilishi undagi qismlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zaro munosabatga kirisha olish xususiyatiga asoslanadi. So'zning tarkibini ajratishda, avvalo, o'zak ajratilib, uning lug'aviy ma'nosi aniqlanadi. O'zakka qaysi qo'shimcha turi qo'shilmasin, u har doim o'zakdagi ma'no bilan aloqador bo'ladi va yangi so'z yasalganda ham o'zakning ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan, *suvoqchilik* so'zining tarkibi *suva+q+chi+lik*. Ushbu kasb-hunar bilan bog'liq soha otining o'zakdagi suvash harakati bilan aloqasi uzilmagan.

So'z tarkibidagi o'zgarishlar. Davrlar o'tishi bilan so'zlarda ma'no taraqqiyoti yuz berib, yasalma o'z atash ma'nosidan uzoqlashishi, kuchli tovush o'zgarishiga uchrashi yoki ayrim morfologik shakllar o'z funksiyasini yo'qotib, «qotib qolishi» mumkin. Agar o'zakdagi ma'no bilan yasalma ma'nosi o'rtasida aloqa uzilsa, morfemalar o'zak tarkibida soddalanishga uchragan bo'lsa, bunday so'zlar ma'noli qismlarga ajralmaydi, unga yaxlit so'z sifatida qaraladi. So'z yasovchi morfemalarda ham, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi morfemalarda ham bu holatni kuzatish mumkin: *qishloq* (aslida qishlaydigan joy, bugungi kunda doimiy yashash joyi, ya'ni qish bilan aloqa uzilgan), *ovloq* (aslida ovlaydigan joy, bugungi kunda pana, xoli joy), *qovurg'a* (qopurg'a – yurak, o'pka kabi a'zolari qoplab turadigan organ), *qopqoq*, *yaproq*, *bo'yin*, *yurak*, *ichak*, *uyg'on*, *uyg'ot*, *uyg'oq*, *yumshamoq*, *o'xshamoq*, *qurshamoq*, *olcha* (aslida olu-cha), *qizilcha* (1. kichik qizil toshmali kasallik. 2. qizartirib qovurilgan go'shtli taom), *ko'kcha* (qovun navi), *Onaxon*, *Olmaxon*, *Qizlarxon*, *Beklar* (mahallasi), *qizg'ish*, *sarg'ish* (aslida qizil-ish,

sariq-ish), *ko'rish* (salomlash), *kelish* (bir qarorga kelmoq), *tortinmoq*, *cho'qinmoq*, *botinmoq*, *kechirmoq*, *surishtir*, *cho'milmoq*, *kelin*, *kechasi*, *kunduzi*, *tunlari*, *chamasi*, *mazmuni*, *qisqasi*, *yaxshisi*, *rosti*, *birdan*, *birga*, *birvarakayiga*, *kunda* va h.

Ko'p hollarda so'zning tarkibini aniqlashda so'zdagi fonetik o'zgarishlar qiyinchilik tug'diradi. Tillarni kuzatishdan ma'lumki, morfologik ko'rsatkichlar yo mustaqil ma'noli leksemalardan, yoki har xil qo'shimchalarning o'zaro birikib yangi qo'shimcha hosil qilish usulidan shakllanadi. Ko'pgina so'zlar qo'shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin: *gapir* (*gap ur*), *tupir* (*tuf ur*), *supur* (*suv ur*), *berkit* (*berk et*), *to'lat* (*to'la et*), *bo'shat* (*bo'sh et*), *yo'qot* (*yo'q et*), *yo'qol* (*yo'q o'l*), *aytoladi* (*ayta oladi*), *ketaver* (*keta ber*), *ketvormoq* (*ketib yubormoq*), *boryapti* (*borib yotibdi*).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zga qo'shimcha qo'shilganda o'zakda fonetik o'zgarishlarning quyidagi ko'rinishlari kuzatiladi.

Tovush tushishi: *sariq-ay / sarg'ay, past-ay / pasay, og'iz-aki / og'zaki, o'yin-a / o'yna, o'rin-ash / o'rnash, ayir-im / ayrim, ayir-il / ayril, buyur-uq / buyruq; ikki-ov / ikkov, olti-ala / oltala, yetti-ovlon / yettovlon; men-ning / mening, sen-ni / sening; burun-i / burni, shahar-im / shahrim, o'g'il-ing / o'g'ling.*

Tovush orttirilishi: *isi-q / issiq, qot-iq / qattiq, tib-iy / tibbiy, his-iy / hissiy, shu-cha / shuncha, bu-day / bunday; u-ga / unga, shu-da / shunda, bu-dan / bundan, haq-i / haqqi, parvo-i / parvoyi, obro'-ing / obro'ying.*

Tovush almashishi:

a ~ o: tara-q / taroq, so'ra-q, / so'roq, qiyna-v / qiynov, so'ra-v / so'rov;

o ~ a: son-a / sana, ong-la / angla, uosh-a / uasha, ot-a / ata;

i ~ u: tinti-v / tintuv, o'qi-v / o'quv, sovi-q / sovuq, quri-q / quruq;

q ~ g': qishloq-i / qishlog'i, yutuq-im / yutug'im, buyruq-i / buyrug'i;

k ~ g: yurak-i / yuragi, eshik-im / eshigim, tilak-ing / tilaging;

So'z tarkibi lug'ati o'rni bilan imlo lug'ati vazifasini ham o'tay oladi. Chunki so'zlarning tarkibiy tuzilishi haqida qat'iy bilimga ega bo'lish, o'zakka turli vazifadagi morfemalar qo'shilishi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarni anglab olish, shubhasiz, yozuvdagi har xilliklarni bir shaklga keltirishga yordam beradi.

Peterburg lingvistik maktabining yirik namoyandasi I.A.Boduen de Kurtene A.I.Vachinyayevning «Imlo lug'ati»ni tahlil qila turib, so'zlarni morfemalarga ajratishning imlo uchun ahamiyati juda katta ekanligini alohida ta'kidlagan edi.

O'zakni ajrata bilish, so'z tarkibidagi tovush o'zgarishlarini fahmlash so'zni to'g'ri yozishga imkon beradi. Shu sababli lug'atda ayrim so'zlarning etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishiga ishora qilib ketishgan: anglashilmovchilik (*ong-la-sh-il-ma-vchilik*), sanoqsiz (*son-a-q-siz*), atoqli (*ot-a-q-li*) kabi [5].

Umuman olganda, morfemik lug'atlarda modellastirish muammolari tabiiy tilning murakkabligi va o'zgaruvchanligi tufayli mavjud. Ushbu muammolarga



qaramay, tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi yutuqlar ushbu sohalardagi modellarning ish faoliyatini yaxshilashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxter et al. 2006 — G. Baxter, R. Blythe, W. Croft, A. McKane. Utterance selection model of language change. *Physical Review E* 73, pp. 046118–1 — 046118–20.
2. Brinton 1891 — D. Brinton. The American race. A linguistic classification and ethnographic description of the native tribes of North and South America. N. D. C. Hodges, New York. Brown et al. 2013.
3. C. Brown, E. Holman, S. Wichmann. Sound correspondences in the world's languages. *Language* 89.1, pp. 4–29. Brugmann 1967.
4. Hamroyeva Sh. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti. Monografiya. “Globe edit”. – Toshkent-2020.
5. Mengliyev B., Bahriddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi lug'ati. – Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2007.
6. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti, 2011.
7. www.fayllar.org
8. www.ziyouz.com